

## **“O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruvi raisining MUROJAATI**

Hurmatli hamkasblar va hamkorlar!

Korrupsiya muammosi so‘nggi yillarda jahon miqyosida transmilliy jinoyat sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzu hisoblanadi.

Respublikamizda ham davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida, shu jumladan sanoat sohasida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va korrupsion omillarga barham berishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-sonli va 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmonlari, 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-sonli qarori va bir qator boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi mazkur sohaning huquqiy asoslarini yaratishga hissa qo‘shdi.

Shuningdek, 2017-yil 19-oktyabrdagi “O‘zavtosanoat” AJ va “General Motors International” kompaniyasi o‘rtasida imzolangan Hamkorlik to‘g‘risidagi Bosh kelishuvga muvofiq, 2018-yilda O‘zbekistonda birinchi bo‘lib “O‘zavtosanoat” AJ va tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashishning ilg‘or xalqaro standartlariga asoslangan komplayens ichki nazorat tizimi joriy etildi.

Ushbu tizimning asosiy vazifasi – sohadagi korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta‘sirchan tizimini ishlab chiqish, shuningdek Jamiyatning barcha xodimlari o‘rtasida tushuntirish-proflaktik ishlarini olib borishdan iborat.

Shu bilan birga, Jamiyat va tizim korxonalarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish siyosati” kabi 15 dan ortiq korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki me‘yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar qabul qilindi.

Avtomobilsozlik sohasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi kurashishda preventiv choralarni kuchaytirish va mazkur yo‘nalishlardagi bilimlarni uzluksiz oshirish maqsadida ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Sohaning ko‘p sonli jamoasi, O‘zbekiston xalqi va hamkorlarimiz oldidagi “O‘zavtosanoat” AJga yuklangan mas‘uliyatni anglagan holda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishi va holatlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha barcha sa‘y harakatlar amalga oshirilmoqda.

“O‘zavtosanoat” AJ o‘z navbatida, korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me‘yorlarni hisobga olgan holda har doim o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni vijdonan bajarilishi va qonun hujjatlariga qat‘iy rioya etilishini kafolatlaydi.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasiz bo‘lish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart. Bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarur” degan chaqirig‘i bizning hayotiy shiorimizga aylangan.

Shunday ekan, Barchamiz, Jamiyat tizimidagi har bir korxonalar rahbari va xodimlari korrupsion holatlarni oldini olish va unga chek qo‘yish uchun mas‘ul ekanligimizni anglashimiz zarur.

Fursatdan foydalanib, hamkasblarimiz va hamkorlarimizni ish yuritishda halollik, ochiqlik va shaffoflik standartlariga hamda korrupsiyaga qarshi tamoyillarga rioya qilishga va shubha tug‘ilgan taqdirda, ehtimoliy qonunbuzarliklar haqida bizga xabar berishga yana bir bor chorlab qolamiz.

Hurmat bilan,

**Boshqaruv raisi**



**Ulugbek Rozukulov**